

## AMIR TEMUR VA BUYUK DAVLATCHILIK SILSILASI.

Buxoro viloyati Qorako'l tumani  
44-umum ta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi  
**Jumaboyeva Mohinur Ulug'bekovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temurning dunyoga kelishidan, davlat boshqaruviga qadam qo'ygani va harbiy siterategik yurushlari, davlat boshqaruvidagi oqilona, xalq bilan hamfikrlikda yuritgan siyosati haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** jete, abulmansur, Zayniddin Abubakr Toybodiy, farsang, Toybodiy, Movarounnahr, Mo'g'ilar, Baraka xoki, Chig'atoy ulusi,

Soxibqiron Amir Temur buyuk davlat arbobi temuriylar sulolasi asoschisi Amir Temur ibin Tarag'ay Muhammad Bahodir 736-sichqon yilida, sha'bon oyining (milodiy 1336-yil 9-aprelda) Shaxrisabiz (Kesh) dan o'n uch chaqrim (taxminan 13 kilometr) bo'lgan Xo'ja Ilg'or qishlog'da tug'ilgan. Hozir bu qishloq Yakkabog' tumaniga qarashli. Otasi Tarag'ay barlos urug'ining nufuzli beklaridan bo'lib, xudojo'y kishi sifatida shayxlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan. U 1360-yili vafot etgan va Kesh shahrida dafin etilgan. Onasining ismi Tegin (Tagina) xotun edi.

Temurni yetti yoshidayoq madrasaga o'qishga berishadi. U madrasaga borguncha alifbodan mukammal xabardor bo'lgan. O'n ikki yoshida boshlab bolalarga xos bo'lgan o'yinlardan voz kechib, keyinchalik o'z tengqurlari davrasida sipohiylikka oid o'yinlar bilan shugillanadi. Amir Temur yoshlik chog'laridayoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lgan. Kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetadi. Uning atrofidagi bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalik mashq qilardi. Musobaqalarda ishtirok etar, asta-sekin navkar bo'lib, harbiy guruhga birlashib borar edi. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shnida lashkarboshlik darajasiga ko'tarilgan.

XIV asirning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarining o'zaro kurashi kuchayib mamlakatida siyosiy parokandalik avj oladi. Mo'g'uliston xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladi. Mog'uliston xoni Tug'luq Temur 1360-1361-yillarida Movarounnahrda birin ketin ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr beklari birlasha olmay xalqni o'z xoliga tashlab ketadi. Amir Temurning amakisi – Kesh viloyatining hukumdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi. 24 yoshli Amir Temur esa boshqacha yo'l tutdi maydoni tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ladi. Shu paytda unga yoshligidan otasi Amir Tarag'ay Bahodirga ustozlik qilgan Piri Zayniddin Toboriy ma'naviy yordam beradi. Piri Zayniddin Abu Bakir Toybodiy<sup>1</sup> yozmishlarkim "Ey Abulmansur Temur! Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin ya'ni; 1)kengash; 2)mashvarat-u maslahat; 3) qat'iy qaror,tadbirkorlik va hushyorlik; 4)ehtiyotkorlik.Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin;uni aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshiga pushaymonlik va nadomat keltirgay.Shunday ekan,saltanat boshqarishda mashvarat-u maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin,toki oqibatda nadomat chekib,pushaymon bo'lmagaysan.Shuni ham bilishing kerakkim saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan bo'lgay,yana bir qismi esa bilib-bilmaslika,ko'rib- ko'rmaslikka solish bilan bitur.Xullas,bajarishi shart bo'lgan, tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozimki, qat'iylik, sabir, chidamlilik, sog'lig-u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur". Shundan keyin Amir Temur O'rta Osiyoni mo'g'ullardan tozalash ishini davom ettiradi. "Chunonchi,men ikki yuz qirq uch kishi bilan kengashga va tadbir yuritgan holda Qarshi qal'asi ustiga yurdim.Amir Muso va Malik Bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan qal'a va uning atrofini qo'riqlamoqda edilar.Tangri taoloning yordami yetib ,o'zim qo'llagan to'g'ri to'g'ri tadbirlarim orqali qarshi qal'asini qo'lga kiritdim so'ng Amir Muso va Malik bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan ustimga bostirib kelib,meni Qarshi

---

<sup>1</sup> Zayniddin AbuBakir Toybodiy- mashhur shayx, ulug' shayxulislom asil Hiroatning Toybodiy qishlog'ida.Amir Temurning pirlaridan.Muarrax Fasiyh Havofiyning (XV asr) "Mujmali Fasihiy" asarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra Amir Temur u bilan birinchi marta 1381-yili Harirut vodiysida uchrashgan. Toybodiy 1389-yili 28-yanvarda vafot etadi.

qal'asini qamal qildilar. Men Tangrining madadi va inoyatiga ishonib, tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda qal'adan chiqib va dushman bilan bir necha marotaba jang qildim. Pirovardida shu ikki yuz qirq uch yigitim bilan o'n ikkiming otliq g'anim lashkarini mag'lubiyatga uchratdim va ularni bir necha farsang<sup>2</sup> yergacha quvib bordim". Ushbu jangda Sohibqironing davlat qurilishi yo'lidagi dastlabgi g'alabalaridan biri edi. Sohibqiron Amir Temur 1370-yilning 9-aprel kuni Samarqandni egallab, mog'ullarga qarshi sakkiz yil davom etgan ozodlik kurashi natijasida Movarounnahrni birlashtirib yirik saltanat bo'lmish Temuriylar davlatiga asos soldi. Bu vaqtda Amir Temur 34 yoshga to'lgan edi. Sohibqiron davlatni yana ham yuksaltirish va kuchaytirish maqsadida suyuqlik turmush o'rtog'i hisoblangan Bibixonim (asil ismi Saroymulxonim) (1341-1408) bilan hamkorlikda davlatni boshqargan. U Chig'atoy ulus xoni-Qozoqxonning qizi. Dastlab Amir Qazag'onning nabirasi-Xusayin ibn Musallabga (1355), keyin (Xusayn qatil etilgach) 1370-yil Amir Temurga nikohlangan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Bibixonim o'z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, maslahatdosh va yrtuk aqil zakovat sohibasi, shuningdek husn-latofati bobida ham benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanparvar, mamlakatning siyosi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahat bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor berar, tolibi ilimlarga homiylik qilardi. Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida ko'pincha hamrohlik qilgan. Sohibqiron farmoyishi bilan 1399-1404-yillari Bibixonimga atab jome' masjidini qurib bitkaziladi. Bundan ko'rishimiz mumkinki davlat boshqaruvi faqat hukumdor boshqaruviga asoslanmagan balki ichki saroy Malika yordami bilan boshqarilgan. Amir Temur qisqa muddat ichida Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini birlashtirgan va o'ziga bo'ysundirgan. 1372 yildan 1388 yilga qadar xorazimni to'la bo'ysundirish uchun 5 marta yurish qilib, uni o'z imperiyasiga qo'shib olgan. To'xtamishxon Misr sultoniga yuborgan maktubi Amir Temur qo'lga tushgandan keyin, To'xtamishxonni daf etish uchun Dashti Qipchoqqa lashkar tortib boradi. Lashkari besh

---

<sup>2</sup> Farsang, farsax (farscha)-eskicha hisobda bir tosh; sakkiz chaqrim, yangicha hisobda; 6 kilometrga teng bo'lgan uzunlik o'lchovi.

oy davomida To'xtamishxonning ortidan quvib yurgani sababli ko'pincha och qola boshladilar. Bu paytdan To'xtamishxon foydalanmoqchi bo'ldi va ko'p askarlari bilan Amir Temur ustiga yurish qildi. "Mening askarlarimning ochlikdan tinkasi qurigandi. To'xtamishxon askarlari esa to'q va osuda edilar. Farzandlarim va nabiralarim huzurimga kelib, tiz cho'kib, men uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklarini bildirmagunlaricha, sarkardalarim va askarlarim boshliqlarim jang qilishga ro'yxushlik bermadilar".<sup>3</sup> Bu payt To'xtamishxonning bayroqdori men bilan til biriktirdi-urish boshlaganimda va ikki tomon qo'shini yuzma-yuz kelganda, bayroqdori bayrog'ini tuban qilish haqida u bilan kelishib oldim. Xuddi shu payt To'xtamishxonning bayrog'i tuban bo'ldi va To'xtamishxon sarosimaga tushib qoldi. U Jo'chi ulusini talon-tarojga tashlab, jang maydoniga orqa og'irib qochdi.<sup>4</sup> Shu tariqa To'xtamishxon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi, bu jangda ham Amir Temurning qo'li baland keldi. 1395 yilda Shimoliy Kavkazga yurish qilib, g'alaba qozongan. Endi Sohibqiron Hindistoni egallash maqsadida kengash o'tkazdi. Amirzoda Pirmuhammad Jahongir<sup>1</sup>: «Agar Hindistonni olsak, uning oltinlari bilan butun yer yuzini egallaymiz», - dedi. Amirzoda Muhammad Sulton esa: «Hindistonni olamiz-u, biroq bunga to'siqlar bor: birinchisi daryolar, ikkinchisi o'rmon-u to'qaylar, uchinchisi - to'liq qurollangan sipohiyalar va odamga hamla qiluvchi quturgan fillari ko'p», - dedi. Amirzoda Sulton Husayn: «Agar Hindistonni qo'lga kirita olsak, to'rt iqlimga hukmron bo'lurmiz», - dedi. Shu kengashdan keyin Amir Temur Hindistonga yurish boshladi. 1398 yil Hindistonni bosib oladi. 1401 yili Suriya yerlarini, 1402- yili Anqaradagi turk yerlarini bosib olgan. Islom va turk olamining ikki buyuk sarkardasi, o'z davrining eng qudratli hukmdorlari Sohibqiron Amir Temur va Boyazid Yildirim (Yashinchaqnar) qo'shinlari 1402 yilning iyun oyi tongining birida Stella tog' yon bag'rida to'qnash keldi. Jang Temur tomonidan qamal qilingan Anqara shahri uchun kechdi. XIV asr so'ngigiga kelib, usmonli turklar sultoni Boyazid Yildirim, Bolqonbo'yi va Kichik Osiyoning o'lkan hududlarini

---

<sup>3</sup> Amir Temur."Temur tuzuklari" forschadan Alixon Sog'unuy va Habibullo Katomatov tarjimasi "Buyuk davlatchilik silsilasi"turkumi –T.; "Ilm-ziyo-zakovat",2020.144b.

<sup>4</sup> Amir Temur Sherozda jang bilan ovora bo'lganidan foydalangan To'xtamish, 1387-1388-yillarda xorazim hukmdori Sulaymon So'fi va Jete mo'g'ilari bilan ittifoqda Movarounnahrda hujum qiladi.

o'ziga bo'ysundirib, o'lkan saltanatga egalik qila boshladi. Boyazid o'z saltanatini kengaytirayotgan bir vaqtda, O'rta Osiyoda Amir Temur o'zining ulkan saltanatiga asos soldi. Ular o'z zamonining yirik hukmdorlari, qardosh millat va yagona din vakillari edi. Ikki yetakchi o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona aloqalar o'rnatilishiga hech narsa xalaqit qilmasdi. Biroq Yaratganning hukmi boshqacha edi. Temur Boyazid bilan jang maydonida to'qnash kelguniga qadar unga bir necha bora xat yozgani va javob olgani ma'lum. Temur har bir xatida usmonlilar sultonini fikr-mulohazali siyosat yuritishga chaqirgan. Ikkala hukmdor ham bir din va qardosh millat vakili ekanliklarini, Boyazid tomonidan o'z himoyasiga olingan Temur dushmanlarini unga qaytarilishini va ikki qudratli davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishi zarurligini ta'kidlagan. Lekin dastlab Temur fikrlariga xayrixoh fikrlar yozib javob yo'llagan usmonlilar sultoni so'nggi xatlarida Temurga qarshi qo'pol va nafsoniyatga teguvchi mazmundagi javoblar yo'lladi. Sulton Boyazidni halokatga yetaklovchi eng asosiy xatolaridan biri – bu uning Temur tobesi Qora Yusuf hukmronlik qilayotgan Erzinjon hududiga bostirib kiritgani bo'ldi. Bunday holatdan g'azablangan Temur Boyazidning yoniga elchi yubordi va undan uzr so'rashini talab qildi. Ammo kibrli va o'ziga ishongan Sulton Boyazid qudratli Temurga haqoratli javob qaytardi. Boyazid tahdidli xatlari bilan diplomatik yozishmalarning barcha chegaralarini buzdi. G'azab otiga mingan Temur zudlik bilan usmonlilar ustiga yurish boshlashga buyruq berdi. Tez orada Sohibqiron qo'shini Kichik Osiyo hududlariga bostirib kirdi. Ilk jang 1399 yilda Sivas shahri yonida bo'lib o'tdi. Ushbu jangda Boyazidning o'g'li Sulaymon Temur qo'shini bo'linmalari bilan to'qnashdi, Sivas zabt etildi. Boyazid Sivasdan 150 kilometr g'arbda, o'tliq qo'shinlari uchun noqulay bo'lgan o'rmonzor va tog' yonbag'rida Temur qo'shinini kutib turdi. Sohibqiron usmonlilar qo'shini bilan u yerda jang qilishdan voz kechib, o'z qo'shinini Qizil irmoq daryosining o'ng sohilidan aylanib o'tib, Boyazid qo'shinining orqa tomoniga o'tib oldi va Anqarani orqa tomondan qamal qildi. Usmonlilar ortga qaytishga va o'zlari uchun noqulay sharoitda jang qilishga majbur bo'ldi. Anqara uchun bo'lib o'tgan jang 1402 yil iyun oyining tongida, Stella tog'i yonida, Sulton Boyazid qo'shinining hujumi bilan boshlandi. Boyazid o'z saltanatini kengaytirayotgan bir vaqtda, O'rta Osiyoda Amir Temur o'zining ulkan saltanatiga asos

soldi. Ular o‘z zamonining yirik hukmdorlari, qardosh millat va yagona din vakillari edi. Ikki yetakchi o‘rtasida o‘zaro hurmat va do‘stona aloqalar o‘rnatilishiga hech narsa xalaqit qilmasdi. Biroq Yaratganning hukmi boshqacha edi. Temur Boyazid bilan jang maydonida to‘qnash kelguniga qadar unga bir necha bora xat yozgani va javob olgani ma’lum. Temur har bir xatida usmonlilar sultonini fikr-mulohazali siyosat yuritishga chaqirgan. Ikkala hukmdor ham bir din va qardosh millat vakili ekanliklarini, Boyazid tomonidan o‘z himoyasiga olingan Temur dushmanlarini unga qaytarilishini va ikki qudratli davlatlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatilishi zarurligini ta’kidlagan. Lekin dastlab Temur fikrlariga xayrixoh fikrlar yozib javob yo‘llagan usmonlilar sultoni so‘nggi xatlarida Temurga qarshi qo‘pol va nafsoniyatga teguvchi mazmundagi javoblar yo‘lladi. Sulton Boyazidni halokatga yetaklovchi eng asosiy xatolaridan biri – bu uning Temur tobesi Qora Yusuf hukmronlik qilayotgan Erzinjon hududiga bostirib kiritgani bo‘ldi. Bunday holatdan g‘azablangan Temur Boyazidning yoniga elchi yubordi va undan uzr so‘rashini talab qildi. Ammo kibrli va o‘ziga ishongan Sulton Boyazid qudratli Temurga haqoratli javob qaytardi. Boyazid tahdidli xatlari bilan diplomatik yozishmalarning barcha chegaralarini buzdi. G‘azab otiga mingan Temur zudlik bilan usmonlilar ustiga yurish boshlashga buyruq berdi. Tez orada Sohibqiron qo‘shini Kichik Osiyo hududlariga bostirib kirdi. Ilk jang 1399 yilda Sivas shahri yonida bo‘lib o‘tdi. Ushbu jangda Boyazidning o‘g‘li Sulaymon Temur qo‘shini bo‘linmalari bilan to‘qnashdi, Sivas zabt etildi. Boyazid Sivasdan 150 kilometr g‘arbda, otliq qo‘shinlari uchun noqulay bo‘lgan o‘rmonzor va tog‘ yonbag‘rida Temur qo‘shinini kutib turdi. Sohibqiron usmonlilar qo‘shini bilan u yerda jang qilishdan voz kechib, o‘z qo‘shinini Qizil irmoq daryosining o‘ng sohilidan aylanib o‘tib, Boyazid qo‘shinining orqa tomoniga o‘tib oldi va Anqarani orqa tomondan qamal qildi. Usmonlilar ortga qaytishga va o‘zlari uchun noqulay sharoitda jang qilishga majbur bo‘ldi. Anqara uchun bo‘lib o‘tgan jang 1402 yil iyun oyining tongida, Stella tog‘i yonida, Sulton Boyazid qo‘shinining hujumi bilan boshlandi. Jangda ikki tomondan har birining 200 mingdan ortiq jangchilari ishtirok etdi. Usmonlilar Amir Temur qo‘shinining o‘ng qanotidan hujum qildi va uning orqa tarafiga o‘tib, asosiy kuchlarini zaxira qismlardan ajratib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Lekin bu hujumni Temurning otliq bo‘linmasi qaytara oldi.

Shundan so'ng Temurning o'ng qanotdagi qo'shini to'xtovsiz qarshi hujumga o'tib, usmonlilarning asosiy kuchlarini zaxira qismlardan ajratib qo'ydi va uni qurshab oldi. Temurning o'rta va chap qanot qismlari ham hujumga o'tib, sulton qo'shinining ikkala qanotini tor-mor etdi. Boyazidning markazdagi sara, Yanichar askarlari ham yanchib tashlandi. Sulton Boyazidning omon qolgan askar va sarkardalari har tarafga qarab qocha boshladi. Usmonlilarning uch shaxzodasi ham otalarini tashlab qochishni afzal ko'rdilar. Boyazidning sodiq sarkardalari sultonga, jang taqdiri hal bo'lganini va unga qochishni maslahat berdi. Biroq sulton qochishdan bosh tortdi. Dushman qurshovida qolib ketgan Sulton Boyazid yarim tungacha dushman bilan ayovsiz jang olib bordi. Yarim tunda uning oti yiqildi va Temur jangchilari Boyazid Yildirimni asir oldi. Murosasiz va shafqatsiz kechgan jang usmonli turklarning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Usmonli turklar davlati to'liq Amir Temur ixtiyoriga o'tdi. Boyazid qo'shinining uchdan ikki qismi jang maydonida yo'q qilindi. Sohibqiron esa qo'shinining sakkizdan bir qismini yo'qotdi. Asirlikka chiday olmagan, mag'rur Boyazid ko'p o'tmay vafot etdi. Amir Temur Boyazid saltanatini uning o'g'illari o'rtasida bo'lib berib, ortga qaytdi. Shundan keyin endi-ki navbat Xitoy yurishiga uyushtirildi. Xitoy (Min) harbiy tayyorgarlik ishlari yetti yilga yaqin vaqtni o'z ichiga olib, qator ishlarni amalga oshirgan. 1397-1398-yilda Ashparaga nabirasi Muhammad Sulton boshchiligida 40 ming kishilik qo'shinlarni yuborish bilan tayyorgarlik ishlari boshlanib, qo'shinlarni kichik guruhlar shaklida sharqqa tomon siljitishni boshlab yuborgan. Shuningdek, Ashparadan o'n kunlik masofadagi vayronaga aylangan Bosh Xumra nomli qal'asini tiklash, qo'shinni ozuqa bilan ta'minlash uchun dehqonchilik ishlariga rahbarlik qilish kabi ishlar ham bajarilgan. Qamariddin mag'lubiyatga uchratilgandan so'ng, Amir Temur uchun qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan Jung'or darvozasi, Tyanshan o'tish yo'laklari, Yulduz vohasi hududlaridan foydalanish imkoni tug'ilgan edi. Harbiy yurish boshlangan vaqtda Buyuk ipak yo'lining aynan shu yo'nalishdan foydalanishga urinilgan.

Xullas Usmoniyalar yurishidan g'olib bo'lib Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yil 27-noyabrda 200 000 kishilik qo'shin bilan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi tufayli amalga oshmay qoldi. Ammo,

Xitoy yurishiga tayyorlanar ekan kuni bitayotganini sezayotgan Ulug' amir bahor kelishini kutib tura olmasdi. Uning farmoniga binoan lashkarlarga issiq ko'ylaklar, qavilgan kiyimlar va qalin to'nlar tarqatildi; temir g'ildirakli besh yuz aravaga qo'sh yopqichli chodirlar yuklandi, zaxira otlar hamda qimizi qiyin lahzalarda askarlarga asqotadigan bir necha ming biya ham safarga tayyorlab qo'yildi. Qo'shin o'tishi mo'ljallangan o'lkalarga ilg'or qismlar jo'natildi, ularga yo'l yoqalariga bug'doy ekish topshirildi, toki qish tugab, biror-bir favqulodda holat ro'y bergudek bo'lsa qo'shin och qolmagay. "Xitoy bilan urush qilish uchun g'oyat katta qudratga ega bo'lmoq darkor", degan edi bir paytlar Amir Temur. U shimol tomon yo'lga tushgan qo'shinini kuzatar ekan, shu beqiyos qudratga erishganiga ishonchi komil edi. Uning rejasi bo'yicha muzlagan Sirdaryodan Turkiston shahri yaqinidan o'tilib, O'tror qal'asi zabt etilardi, so'ng Almalik, undan keyin esa Turfon orqali o'tib Su-Chu qo'lga kiritilishi lozim edi. Hozirgi sharoitda Amir Temur lashkarlari bu masofani uch oyda bosib o'tishlari va bahorda Chin qo'shinlari ustiga qo'qqisidan hujum qilishlari lozim edi. Yo'lda qalin qor qoplagan o'lkalardan o'tdilar, kuchli ayozga duch keldilar, katta miqdordagi askarlar va jonivorlardan ayrildilar. Sovuq shu qadar kuchli ediki, askarlarning nafasi soqoliga yopishib qolar edi. Qorning qalinligi askarlarning ko'kragigacha yetishi xabar qilingan. Lekin Amir Temur to'xtashga ruxsat bermagan. O'trorda faqatgina nafas rostlab o'tishni maqsad qilgan Temur Berdibek saroyiga yetib keldi. Ilk tundayoq binoning tomiga o't ketdi, bu esa temuriylar qo'shini tarkibidagi mo'g'ullarni sarosimaga soldi. Qovg'a burjida 3 sayyora bir-biriga yaqinlashganini ko'rgan munajjimlar halokatdan bashorat qilishi esa butun qo'shinni sarosimaga soldi. Shu payt Amir Temur Samarqandga qaytishlari kerak bo'lgan malikalar va shahzodalar sharafiga ziyofat beradi. Bu ziyofat 1405-yil 12-yanvar kuni bo'lib, ayrim mulohazalarga ko'ra Temurning o'limiga sabab bo'lgan kasallik aynan shu kuni xuruj qila boshlagan. Amir Temur bir necha kun davomida og'ir kasallikka qarshi kurashadi; u qattiq alahsirar, ba'zan fikri ravshan tortib qolar edi. Shu paytda u lashkarlar ahvolidan xabardor bo'lar va Qur'on oyatlarini tilovat qilar edi. 1405-yil 19-yanvar tongida kasallik shu darajada kuchaydiki, Amir Temurning ko'ngliga hech narsa sig'maydigan bo'lib qoldi. Shundan so'ng u o'z yaqinlarini chaqirib, ularga quyidagicha nasihat qiladi: "Anglab turibmanki, ruh qushi qalb

qafasidan parvoz qilmoqchi. Tangri taoloning dargohiga jonimni baxsh etayotibman. Sizlarni uning lutf-u marhamatiga topshirdim. Obi diyda qilib o'ltirmanglar, oh-u nola chekmanglar, chunki bundan foyda yo'q. Ruhimni fотиha va takbir bilan shod etinglar. Dunyo menga vafo qilmadi, sizlarga ham vafo qilmaydi. Lekin zo'ravonlikka mone'lik qilish ishini kechiktirish mamlakatni xavf-u g'avg'o ostida qoldiradi, jumlayi xaloyiqning huzur-halovatini buzadi, maslag-u tariqatning buzilishiga olib keladi. Qiyomat kuni buni bizdan so'raydilar, surishtiradilar...".

Amir Temur o'z izdoshlariga shu mazmunda vasiyatini bildirib, o'zidan so'ng Pirmuhammadga bo'ysunishlarini uqtiradi. Amir Shohmalik va Shayx Nuriddin uning vasiyatlarini bajarish va amal qilishga hammaning nomidan kafil bo'ladilar. 1405-yil 18-fevral kechqurun buyuk saltanat sohibi Amir Temurning yuragi urishdan to'xtaydi. Uning jasadı o'z vasiyatiga ko'ra Samarqandga olib kelinib, ustozı Shayx Sayyid Baraka xokining oyoq tomoniga dafn etiladi. Shu bilan buyuk sohibqiron tuzgan bu davlat Amir Temur vafotidan keyin sekin-sekin shahzodalar o'rtasida taxt uchun bo'lgan kurash natijasida parchalana boshladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, biz o'quvchi yoshlar sohibqiron Amir Temurdek ajdodlarni farzandi ekanligimizdan faxr tuyg'usini tuyib yashamog'imiz kerak. Ularga munosib izdosh bo'lmog'imiz darkor. Shu maqsadda O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochildi. Uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar va qishloqlardagi shoh ko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqa uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi, 1996-yil Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi. 1996-yil "Amir Temur" ordeni ta'sis etildi va 1995-yil Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil qilindi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. Amir Temur. "Temur tuzuklari" forschadan Alixon Sog'unıy va Habibullo Katomatov tarjımasi "Buyuk davlatchilik silsilasi" turkumi –T.; "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. 144b.

2. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati/Mas'ul muharrir A.Qayumov/.-T.: Yozuvchi, 1996.-96 b.
3. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. -T.: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.-513 b.
4. Lyusen Keren. “Amir Temur Saltanati”. –T.: Manaviyat, 1999. –B. 158-159